

Rabiyev Bobomurod Bahadirovich,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot
insituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: rabiev2022@adu.uz.



AYOLLAR UY XIZMATI MIGRATSIYASINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA GONKONG TAJRIBASI

Annotatsiya. Yer yuzi aholisining yirik qismi Osiyo mintaqasiga, eng ko‘p salmog‘i esa Xitoy davlatiga to‘g‘ri keladi. Aholi tarkibining xilma-xilligi, tug‘ilish ko‘pligi, yil sayin qariyalar soni o‘shishi mintaqada ayollar uy xizmati faoliyati shakllanishiga va rivojlanishiga zamin yaratadi. Maqolada Xitoyning yirik megapolislaridan biri hisoblangan Gonkong shahrida uy xizmati kasbining yuzaga kelishi va istiqbollari haqida fikrlar keltirilgan.

Аннотация. Самая большая часть населения мира проживает в азиатском регионе, а наибольшая доля – в стране Китай. Разнообразие структуры населения, высокая рождаемость, ежегодное увеличение числа пожилых людей создают основу для становления и развития женского домашнего хозяйства в регионе. В статье рассматриваются возникновение и перспективы профессии домашней прислуги в Гонконге, одном из крупнейших мегаполисов Китая.

Annotation. The largest part of the world's population lives in the Asian region, and the largest share lives in China. The diversity of the population structure, high birth rate, annual increase in the number of elderly people create the basis for the formation and development of female housekeeping in the region. The article examines the emergence and prospects of the profession of domestic servants in Hong Kong, one of the largest cities in China.

Tayanch so‘zlar: Osiyo, Gonkong, ayollar uy xizmati, migratsiya, mahalliy aholi, kasb turlari, ijtimoiy yordam.

Ключевые слова: Азия, Гонконг, женская домашняя прислуга, миграция, местное население, профессии, социальная помощь.

Keywords: Asia, Hong Kong, female domestic servants, migration, local population, professions, social welfare.

Dunyo bo'yicha 67 million uy ishchi xizmatchisi bo'lib, 11 millioni migrant hisoblanadi. Hozirda Gonkongda har iqtisodiy faol 13 ta ayolning 1 tasi uy ishchisi maqomiga to'g'ri keladi. 2023-yilda migrant uy ishchilari 368 217 kishi bo'lib, umumiy ishchi kuchining 10 foizini, shahar aholisining 7,4 foizini tashkil etdi.


Kirish. Dunyo aholisi yil sayin ko'payib bormoqda. Shu bilan mos ravishda ishchi kuchi, tabiiy resurslarga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida demografik vaziyat o'zgarib, aholi qarishi kuzatilmoqda. Xitoyning eng yirik sanoat va turizm markazlaridan biri hisoblangan Gongkong shahrida ayollar uy ishi migratsiyasi va uning tartib-qoidalari, migrantlarning ijtimoiy hayoti, xorijlik ishchilarini uy ishlariga jalb qilish mexanizmi, ijtimoiy iqtisodiy va demografik vaziyatni tahlil qilish hamda o'rganish zarur hisoblanadi.

Bunday tadqiqotlarini o'tkazish, xorijda ish bilan taminlash agentligi faoliyatini yaxshilash, ular tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash, ayollar uy ishi migratsiyasini takomillashtirish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish va himoya qilish choralari ishlab chiqish bu borada xorijiy tajribalardan foydalanish zarurligini belgilab beradi.

Maqsad va uni asoslash. Dunyo bo'yicha 67 million uy ishchi xizmatchisi bo'lib, 11 millioni migrant hisoblanadi. Hozirda Gonkongda har iqtisodiy faol 13 ta ayolning 1 tasi uy ishchisi maqomiga to'g'ri keladi. 2023-yilda migrant uy ishchilari 368 217 kishi bo'lib, umumiy ishchi kuchining 10 foizini, shahar aholisining 7,4 foizini tashkil etdi.

Hukumat qoidalari bo'yicha Gonkongga Xitoyga o'xshab bir xil viza tartibi bo'yicha kirish kerak. Shuningdek, bir xo'jalikda ishlashi kerak bo'lgan ko'p hollarda migrant ayollar ish beruvchi bilan bir xo'jalikda yashashadi. Ayollar uy xizmatidagi migrantlarining eng ko'pini, ya'ni 206 281 ta kishi filippinliklar, 165 620 tasi Indoneziyadan, 2357 ta kishi Tailanddan bo'lib, 6616 ta ishchilar boshqa mamlakatlardan kelgan migrantlar hisoblanadi¹.

¹ Latest available data as published by Hong Kong SAR, China Census and Statistics Department, 2019. Tarjima Gonkong, Xitoy aholini ro'yxatga olish va statistika departamenti tomonidan e'lon qilingan so'nggi mavjud ma'lumotlar, 2019-yil.



1-rasm. Gonkongdagi uy xizmatida ishlaydigan migrant ayollar ulushi, foizda

Diagrammada Gonkongdagi uy ishchisi migrantlarining kelib chiqish davlatlariga ko'ra eng yirik miqdori ko'rsatilgan. Bunda 54 foiz – filippinliklar; ikkinchi o'rinda – 43 foiz indoneziyaliklar; 1 foiz – tailandliklar; 2 foiz boshqa millat vakillarini ko'rishimiz mumkin.

Diagrammada Gonkongdagi uy ishchisi migrantlarining kelib chiqish davlatlariga ko'ra eng yirik miqdori ko'rsatilgan. Bunda 54 foiz – filippinliklar; ikkinchi o'rinda – 43 foiz indoneziyaliklar; 1 foiz – tailandliklar; 2 foiz boshqa millat vakillarini ko'rishimiz mumkin.

Aholi zich bo'lgan bu hududda xorijliklarni uy ishi bilan ta'minlash uchun bir nechta shirkatlar mavjud bo'lib, asosan, orolga yaqin bo'lgan hududlardan ishga yollanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- migrant ayollarni uy xo'jaliklaridagi asosiy faoliyati uy ishlarini bajarish 93 foizni, bolalarga enagalik qilish 67 foizni, keksalarni parvarish qilish 32 foizni tashkil etadi;
- mahalliy aholi 99 foiz holatda migrant ayollarni uy ishiga yollaganda agentlikka murojaat qilishadi, bu esa ishchi muayyan vaqt davomida homilador bo'lishi mumkin emasligini kafolatlaydi;
- 84 foiz ishchilar fikriga ko'ra homiladorlik tufayli ishdan haydalish mumkin va u qayta tiklanmaydi;
- ayol uy ishchi migrantlarning huquqiy savodxonligi yetarli emasligi tufayli faqat 51 foizi onalik ta'tilidan foydalanadi;
- ish beruvchi uy xo'jaliklarining (66%) fikriga ko'ra migrantlarni ishga jalb qilgan firma yetarlicha qo'llab-quvvatlamaydi;
- maoshning kamligi tufayli 80 foizga yaqin uy ishchilari o'z faoliyatlaridan zavq olib ishlamaydi.

1970-yildan boshlab Gonkong tez sur'atlarda rivojlana boshladi. Ko'pgina ayollar pul topish uchun mehnat bozoriga qo'shildi va shu bilan uy xizmatchisi kasbi mintaqada rivojlana boshladi. Hozirgi kunda migrantlarning oylik ish haqi 4000-4900 Gonkong dollari (550-650 AQSh dollari) mahalliy aholi o'rtacha ish haqi 42 000 Gonkong dollari bo'lib, bu ko'pincha oilalarni uy xizmatchi yollashga zamin yaratadi.

Gonkongning eng yirik platfomalaridan hisoblangan HKspeech.com² ijtimoiy saytida 3664 kishi foydalanuvchi bo'lib, hozirgacha 7585 ta savol, 383 119 ta bahs-munozara mavzulari tahlil qilingan. Shuningdek, ular ichidan aynan Gonkongda ishlovchi migrant ayol uy xizmatchilarining fikrlari inobatga olingan.

1970-yildan boshlab Gonkong tez sur'atlarda rivojlana boshladi. Ko'pgina ayollar pul topish uchun mehnat bozoriga qo'shildi va shu bilan uy xizmatchisi kasbi mintaqada rivojlana boshladi. Hozirgi kunda migrantlarning oylik ish haqi 4000-4900 Gonkong dollari (550-650 AQSh dollari) mahalliy aholi o'rtacha ish haqi 42 000 Gonkong dollari bo'lib, bu ko'pincha oilalarni uy xizmatchi yollashga zamin yaratadi. Filippin va Indoneziyada esa 500-600 AQSh dollari yuqori oylik hisoblanib, hatto yuqori lavozimdagilar bundan kam oylik olishlari, ko'pgina ayollarni migratsiyada ishtirok etishga undaydi.

Gonkong hukumati tomonidan ishlab chiqarilgan qo'llanmaga ko'ra mintaqaga uy ishchisi sifatida kelgan migrant ayol faoliyatini birinchi va ikkinchi yilida 7 kun mehnat ta'tiliga chiqish kerak. Yillar davomida kunlar ortib boradi (14 kungacha). Batafsil ma'lumotlar quyidagi jadvalda batafsil berilgan (1-jadval).

1-jadval

Gonkongda ayol uy xizmatchisining mehnat ta'tili

Mehnat faoliyati davri (yillarda)	Haq to'lanadigan mehnat ta'tili (kunlarda)
1	7
2	7
3	8
4	9
5	10
6	11
7	12
8	13
9 va undan ko'p	14

Shuningdek, qonunga ko'ra qariyalarni parvarishlash uchun yollangan migrant ayollar hukumat tomonidan sog'ligi yomonlashsa, tekin tibbiy xizmat va har oy qo'shimcha ravishda 1075 Gonkong dollari (138 AQSh dollari) ijtimoiy yordam puli olib turadi.

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, ishga kelayotgan migrantlarning 81 foizi uy xizmatchi kasbini qarindoshlar tavsiyasiga binoan yoki

² HKspeech.com Gonkong ovozi (muallif tarjimasi) ijtimoiy tarmog' uy xizmatida ishlaydigan ayollar uchun maxsus platforma.

tanish-bilish orqali tanlashadi va ishonchli mehnat birjalariga murojaat qilishadi. Bunday tashkilotlar juda ko'p bo'lib, migrantlarga turli xil uy ishlarini taklif qiladi, buning evaziga migrantlar ishga joylashgandan so'ng birinchi oyligidan faqat bir marotaba 10 foizni firma to'lovi sifatida ushlab qolinadi hamda mehnat birjalari migrantlarni huquqiy himoya qiladi, ish joyida haftada 1 kun dam olish kunini belgilab beradi va kafolatlaydi.

Migrant ayollarning aksariyati, umumiy holda 39 foizi – uy ishlariga yordamchi, 24 foizi – bola parvarishlash, 11 foizi – qariyalarni qarash va boshqa uy yumushlarini bajarishadi.

Migrantlar kamsitilish, zo'ravonlikka uchraganda, or-nomusiga tegish hollari ro'y berganda yoki hayoti xavf ostida bo'lganda 999 tezkor ishonch raqamlarga bog'lanishlari lozim. Agar ish haqi to'lanmasa yoki huquqi buzilgan bo'lsa, 24 soatlik "2157 9537" ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilishlari tavsiya etiladi³.

Ayol uy xizmatchilari tomonidan mahalliy madaniyatni tushunmaslik holatlari ham bo'lib turadi. Migrant ayollar mahalliy tilni tushunmasligi sababli turli kamsitishlarga uchraydi, ko'p aholi ingliz tilini tushunsa-da, yosh bolalar va qariyalar xitoy tilida so'zlashadi.


Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Gonkong uy xizmatchisi qoidalariga ko'ra, ishchi ish beruvchi bilan birga yashashi kerak va Gonkongda yer tanqisligi hamda ijara narxining yuqoriligi uchun mahalliy aholi turarjoylari ancha torligidan bu holat ayollarni qiyin vaziyatga soladi. 400 mingga yaqin uy xizmatchisi istiqomat qiladigan ushbu shaharda ishchilarning vazifalari, turmush tarzi ijtimoiy jihatdan o'rganilib, quyidagi muammolarni yoritish maqsad qilindi (2-rasm):

Gonkong uy xizmatchisi qoidalariga ko'ra, ishchi ish beruvchi bilan birga yashashi kerak va Gonkongda yer tanqisligi hamda ijara narxining yuqoriligi uchun mahalliy aholi turarjoylari ancha torligidan bu holat ayollarni qiyin vaziyatga soladi.

3 Survey report 2020 Understanding and Attitudes of Employers of Migrant Domestic Workers towards Ethical Recruitment and Decent Work Principles in Hong Kong Special Administrative Region, China.

2020-yilgi tadqiqot hisoboti, Xitoy, Gonkong maxsus ma'muriy hududida migrant uy ishchilari ish beruvchilarini axloqiy yollash hamda munosib mehnat tamoyillariga nisbatan tushunchasi va munosabati.

Respondentlarning javoblariga ko‘ra eng ko‘p shikoyat – 52% ishchilar shaxsiy xonasi yo‘qligidan shikoyat bildirishgan. Ishchilar koridorda, oshxonada, yo‘laklarda, hattoki cho‘milish xonasida ham uxlashga majbur bo‘lishadi, bu esa ishdan toliqish, ruhiy zo‘riqishni keltirib chiqaradi va to‘laqonli dam olishni chegaralaydi. Shuningdek, 44% ishchilar belgilangan soatdan ko‘p ishlashini, bunga esa hukumat qarorlari yaxshi ishlamayotganini ta’kidlaydilar.



2-rasm. Gonkongdagi uy xizmatchilarining yashash va ishlash jarayonidagi ko‘rsatmalari

Respondentlarning javoblariga ko‘ra eng ko‘p shikoyat – 52% ishchilar shaxsiy xonasi yo‘qligidan shikoyat bildirishgan. Ishchilar koridorda, oshxonada, yo‘laklarda, hattoki cho‘milish xonasida ham uxlashga majbur bo‘lishadi, bu esa ishdan toliqish, ruhiy zo‘riqishni keltirib chiqaradi va to‘laqonli dam olishni chegaralaydi. Shuningdek, 44% ishchilar belgilangan soatdan ko‘p ishlashini, bunga esa hukumat qarorlari yaxshi ishlamayotganini ta’kidlaydilar. Biz yopiq joyda ishlaymiz, har bir xonadonning o‘z boshqaruv tizimi bor – “har kuni 11 soatdan 16 soatgacha ishlash oxirgi paytlarda oddiy hol bo‘lib qolmoqda”, deydi 2011-yilda Filippindan uy xizmati uchun mehnat muhojiri sifatida kelgan 39 yoshli Marta.

Migrantlar tashkiloti taqdim etgan hisobotga ko‘ra, 29 foiz ishchilar oziq-ovqatning yaxshi emasligi va kamligi tufayli o‘zi hisobidan sotib olishga majburdirlar. Qonunan ish beruvchi uy xizmatchisini oziq-ovqat bilan ta’minlash yoki qo‘shimcha to‘lov qilishi kerak.

Davolanish va dam olish kunlari yo‘qligi, yakshanba ham ish kuni ekanligi ayol ishchilarni og‘ir sharoitlarda mehnat qilishga majbur etadi. Gonkong qonunlariga ko‘ra, uy ishchilari ishdan ketsa yoki ish joyini o‘zgartirmoqchi bo‘lsa, 14 kun muhlat beriladi. “Uy ishchilariga yordam” (HELP for Domestic Workers) tashkiloti qayd etishicha, bunday qisqa muddat ayollarni zo‘rlash holatlari ham sodir bo‘lganda sukut saqlashga majbur qiladi va respondentlar orasida ularning salmog‘i 2 foizga teng.

3-rasmda Gonkongdagi ayol uy xizmatchilarining kundalik yumushlari berilgan. Ish beruvchi tomonidan ishchi ayolga shartnomaga binoan faoliyat turlari, kasblari aniq darajada yozilgan bo'lsa-da, bu yumushlarni enagalar, uy xizmatchilari, oshpazlar, qariyalarga qarovchilar ham bajarishga majburlar.



3-rasm. Gonkongdagi migrant uy ishchilarining kundalik vazifalari

Ayollar uy xizmatida eng og'ir jaryonlardan biri doimiy ravishda mahalliy aholi tomonidan diskriminatsiyaga uchrashidir. "Gonkongning migrant yozuvchilari"⁴ tashkiloti 2021-yilda tashkil etilgan migrantlar orasida iqtidorli yozuvchilar hayotiy voqealarni, ish jarayonlarini yoritib borishadi. So'nggi paytlarda eng ko'p yozilgan she'rlar "bizni ham xuddi mahalliy aholi kabi teng ko'ringlar" mazmunidadir, bu esa migrantlar ish vaqtida irqchilik va kamsitishlarga duch kelayotganidan darak beradi⁵.

"Filippin yakshanbasi" Angliya mustamlakasi davridan buyon davom etib kelayotgan an'anadir. Yakshanba kuni markaziy ko'chalari migrantlarga to'radi (havola orqali rasmlarni ko'rish mumkin⁶), ular, aslida, ish joyida dam olishni maqbul ko'rishsa-da, Gonkong qonunlariga ko'ra haftada bir kun dam olish kerak. Shu sababdan yo'laklar, bank va hukumat binolarining oldi, parklar, ba'zan yerosti tunellarida charchagan va uxlayotgan migrant ayollarni ko'rish mumkin.

Ayollar uy xizmatida eng og'ir jaryonlardan biri doimiy ravishda mahalliy aholi tomonidan diskriminatsiyaga uchrashidir. "Gonkongning migrant yozuvchilari" tashkiloti 2021-yilda tashkil etilgan migrantlar orasida iqtidorli yozuvchilar hayotiy voqealarni, ish jarayonlarini yoritib borishadi.

⁴ Поэзия как терапия: домработники Гонконга размышляют о любви и жертвенности. <https://ru.globalvoices.org/2024/04/22/120709/>

⁵ Ushbu maqola Hillari Leung tomonidan yozilgan va Gong Kong Free Press (HKFP) tomonidan 2024-yil 9-martda chop etilgan. Ushbu materialning tahrirlangan versiyasi Global Voices bilan hamkorlik shartnomasi orqali taklif etiladi <https://hongkongfp.com/2024/03/09/poetry-as-therapy-hong-kongs-domestic-workers-write-about-love-sacrifice-in-their-home-away-from-home/>

⁶ Ko'chada dam olayotgan uy xizmatchi migrantlar. https://pikabu.ru/story/samyiy_gryaznyiy_den_den_fillipinskikh_domrabortnits_v_gonkonge_6436255

*Uy xizmati
migrantlar uchun
dastlab 1-yilda
7 kun (tajriba
va uzoq yillar
faoliyatiga qarab
ko'payib boradi)
davomida haq
to'lanadigan ta'til
joriy qilingan.
Rossiya, Isroil
va Turkiyada
qariyalarni
parvarishlash
sohasida
ishlaydigan
vatandoshlarimiz
fikriga ko'ra
bunday imkoniyat
mavjud emas.*

Yakuniy qism. Ayol uy ishchi migrantlarning huquqiy savodxonligini oshirish uchun onlayn platformalar tashkil etilgan hamda har yakshanba kuni munitsipalitet tomonidan ularni qullab-quvvatlash maqsadida madaniy-ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazilib turiladi.

Ishchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Ular uchun munosib mehnat sharoitlari, dam olish vaqti va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash zarur. Migrant ayollarni ekspluatatsiya qilishga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Uy ishchilarini kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik ish joyidagi turli xil muammolarni hal qilish va ish joyini o'zgartirish, bepul huquqshunos va psixolog xizmati, viza masalalari bo'yicha Gonkong Osiyo uy ishlari kasaba uyushmalari Federatsiyasi (Hong Kong Federation of Asian Domestic Worker Unions (FADWU) tuzilgan bo'lib, hozigacha yuqori saviyada faoliyat yuritib kelmoqda.

Gonkongda migrantlar orasida aynan uy xizmatchisi vazifasini bajaruvchi migrantlarga oziq-ovqat uchun maxsus chegirma va hukumat tomonidan har oy maoshning 1/4 qismiga teng miqdorda yordam puli berib turiladi. Bunday iqtisodiy ko'mak ishchilarni yanada samarali va ijobiy mehnat qilishga undaydi.

Uy xizmati migrantlar uchun dastlab 1-yilda 7 kun (tajriba va uzoq yillar faoliyatiga qarab ko'payib boradi) davomida haq to'lanadigan ta'til joriy qilingan. Rossiya, Isroil va Turkiyada qariyalarni parvarishlash sohasida ishlaydigan vatandoshlarimiz fikriga ko'ra bunday imkoniyat mavjud emas.

Ayol uy xizmatchilariga zarur ijtimoiy xizmatlar: tibbiy yordam, ta'lim va turarjoy imkoniyatlari ta'minlanishi lozim. Bunday qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish ularning farovonligi va hayot sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Vatandoshlarimiz xorijiy mamlakatlarda irqchilik va boshqa kamsitishlarga duch kelishining oldini olish maqsadida Gonkongdagi "Migrantlarga yordam", "Migrantlar uyushmasi", "Migrantlar ovozi", "Migrantlar huquqi" kabi tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish darkor.

Bundan tashqari, ishchilarning kasbiy o'sishi va karyera imkoniyatlari uchun shart-sharoitlar yaratish muhim. Malaka oshirish kurslarini tashkil etish, shuningdek, ularning ko'nikma va tajribasini o'stirish ularga o'z salohiyatlarini namoyon etishga imkon beradi.

Xorijga ketishdan avval qisqa muddatli o'quv amaliyotlarini tashkillashtirish ishchi ayollar mehnatidan samarali va uzoq vaqt foydalanishga imkon beradi. Uy ishchi migrantlarga bo'lgan talab yuqoriligi va mehnat tizimining barqarorligi sababli 2047-yilda Gonkongda migrant ayollar soni 600 mingga ortishi kutilmoqda.

Ish beruvchilar va uy xizmati xodimlari o'rtasida o'zaro hurmatni oshirish talab etiladi. Stereotiplar, to'siqlarni yo'qotish, shuningdek, xodimlarga adolatli munosabatda bo'lish jamiyatdagi munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://equityhealthj.biomedcentral.com/articles/10.1186/s12939-024-02098-3>
2. <https://www.dimsumdaily.hk/over-80-of-migrant-domestic-worker-employers-think-they-can-dismiss-them-due-to-pregnancy/>
3. Tam, W.J., Koh, G.C.H., Legido-Quigley, H., Ha, N.H.L., and Yap, P.L.K. (2018). "I can't do this alone": a study on foreign domestic workers providing long-term care for frail seniors at home. *Int. Psychogeriatric*. 30, 1269–1277. doi: 10.1017/S1041610217002459
4. Labour Department (2022). *Practical guide for employment of foreign domestic helpers: What foreign domestic helpers and their employers should know*. Available online at: <https://www.fdh.labour.gov.hk/res/pdf/FDHguideEnglish.pdf> (accessed October 9, 2022).
5. <https://edition.cnn.com/2020/07/09/asia/hong-kong-helper-live-in-rule-intl-hnk/index.html>.
6. <http://easytravel.life/filippinki-v-gonkonge-ili-kontrasty-bolshogo-goroda/>
7. <https://nv.ua/world/countries/prisluga-v-gonkonge-pochemu-rabotodateli-ekspluatiruyut-lyudey-perevod-materiala-cnn-50099200.html>
8. https://pikabu.ru/story/samyiy_gryaznyiy_den__den_fillipinskikh_domrabortnits_v_gonkonge_6436255